

**ANDIJON MASHINASOZLIK
INSTITUTI**

**TEMUR TUZUKLARI VA
MILLIY G'OYALAR
RIVOJI**



AMIR TEMUR

ARIPOVA ZULFIYAXON




AMIR TEMUR -

Mashhur davlat arbobi,
O'rta asrlar islohotchisi,
sarkarda, adolat uchun
tolmas kurashchi, ilm-fan
va madaniyat rahnamosi

ARIPOVA ZULFIYAXON




Siyosiy maydonga qadam qo‘yganida Amir Temur endigina 24 yoshga kiringandi. Mamlakat parokanda, mahalliy siyosiy kuchlar o‘rtasidagi o‘zaro qarama-qarshiliklar avj olgandi. Ustiga ustak, Chingizxon avlodlari Movarounnahrda tez-tez bosqin uyushtirib turardi.




Taxminan bir asr davom etgan bu davrda Movarounnahrning istibdod alamini tortgan oddiy fuqarolaridan to yirik siyosiy arboblariyu din peshvolarigacha juda ham og'ir kun kechirdilar. Jamiyatga ozodlikka va taraqqiyotga bo'lgan intilishlarni o'zida mujassam etgan xaloskor, dohiy zarur edi. Taqdir taqozosi bilan Amir Temur ana shunday xaloskor va yo'lboshchi sifatida tarix sahnasida paydo bo'ldi.


ARIPOVA ZULFIYAXON

1370 yilda Amir Temur Balxda bo'lib o'tgan qurultoyda Movarounnahrning ulug' amiri deb e'lon qilindi. Amir Temurning buyuk saltanat barpo qilish bobidagi sa'y-harakatini shartli ravishda 2 ga bo'lish mumkin. Birinchi davr 1370-1388 yillar bo'lib, bu davrda Temur asosan turkiy xalqlardan tashkil topgan Chig'atoy mulkini markazlashgan davlatga birlashtirish uchun kurashdi. Ikkinchi davr 1388-1405 yillardir. Bu davrda Temur o'z davlati hududini kengaytirish va buyuk saltanat barpo etishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.






Tarqoqlikni bartaraf etib, ayrim o'lkalarni yagona davlatga birlashtirish Amir Temurning asosiy maqsadi edi. U davlatning poytaxti qilib So'g'diyonaning qadimiy poytaxti bo'lgan Afrosiyob xarobalari yonidagi Samarqandni belgiladi...



...va yangi buyuk shaharga asos soldi.



ARIPOVA ZULFIYAXON




Amir Temur saltanati O'rta Osiyoda 35 yil (1370-1405) hukm surdi. U Markaziy Osiyo hududlarini yagona markazlashgan davlatga birlashtirdi, Hind va Gangadan to Sirdaryo va Zarafshongacha, Tyan-Shandan to Bosforgacha ulkan imperiya barpo etdi.





Tarix Amir Temurni makedoniyalik Iskandar, Doro 1, Yuliy Sezar kabi yirik sarkardalar bilan bir qatorga qo'yadi. Amir Temur- mingta jang o'tkazib birontasida ham yengilmagan mashhuri zamon sarkarda !

ARIPOVA ZULFIYAXON





ARIPOVA ZULFIYAXON



ARIPOVA ZULFIYAXON

XIV asrning ikkinchi yarmida Movarounnahr Yaqin va O'rta Sharqning tijorat, iqtisod va madaniyat markaziga aylanib bordi. Chingizxon qo'shinlari tomonidan tag-tubigacha vayron qilingan Samarqand, Kesh, Buxoro, Termiz, Toshkent, Marv, Hirot kabi va boshqa qadimiy shaharlar obod bo'la boshladi. Masjido madrasalar, maqbaralar, karvonsaroylar va hammomlar qurildi.







ARIPOVA ZULFIYAXON



Mamlakat iqtisodiyoti mustahkamlandi, savdo va hunarmandchilik ishlab chiqarishi rivojlana boshladi, qo'shni va uzoqdagi mamlakatlar bilan savdo-xo'jalik aloqalari kengaydi.



Amir Temur hayotlik paytida davlat boshqaruvi haqida **“TEMUR TUZUKLARI”** degan nomda mashhur bo‘lgan maxsus kitob yozilgan edi. Unda bu mashhur davlat arbobi va sarkardaning harbiy san’atga, davlat tuzilishi va mamlakatni boshqarishga oid qarashlari aks etdi.


ARIPOVA ZULFIYAXON

"Temur tuzuklari" dan namunalar:

"Dilimning mashriqdan ko'tarilgan birinchi tuzuk shundan iborat bo'ldiki, islom dinin yoyib, Muhammad, unga Tangrining marhamatlari va salomlari bo'lsin, shariatni quvvatladim. Jahonni turli mamlakatlari, katta va kichik shaharlarida islom dinini va yaxshi odamlar orasida shariatni yoydim va o'z saltanatimni shariat bilan bezadim".



"Raiyat ahvoldan ogoh bo'ldim,
ulug'larni og'a qatorida,
kichiklarni farzand o'rnida
ko'rdim. Har yerning tabiatini,
har elning rasmi-odat, yo'l-
yo'sinlaridan voqif bo'lib turdim,
har bir o'lka va shahar
aholisining ulug'lari va
buzruglari bilan oshno bo'ldim
va ularning mijozlariga,
tabiatiga to'g'ri kelgan, o'zlari
tilagan odamlarni ularga hokim
qilib tayinladim. Har bir diyor
aholisining ahvolidan ogoh
bo'lib turdim. har bir
mamlakatning ahvolini, sipohu
raiyyat kayfiyatini, turmushlarini,
bular o'rtasidagi aloqalarni yozib
menga bildirib turish uchun
diyosatli, kishilardan
voqeanavislar belgiladim ."





"Hech kimdan o'ch olish maqomida bo'lmadim. Tuzimni totib menga yomonlik qilganlarni Parvardigori olamga topshirdim. Ish ko'rgan, shijoatli er-yigitlarni qoshimda tutdim, ko'ngli buzuq qo'r'oqlarni majlisimdan quvib yubordim".

ARIPOVA ZULFIYAXON



"Biron mamlakatda jabr-zulm va fisq-fasod kuchayib ketarkan, asl podshohlar adolat o'rnatib, fisq-fasodni, zulmni yo'qotish niyatida ana shunday mamlakatga hujum boshlashi lozim. Tangri taolo shu niyatining sharofati bilan mamlakatni zolimning qo'lidan tortib olib, odil (podshoh)ga topshiradi".



"Yana amr qildimki, g'anim tomonidan bizning qo'limizga har qanday sipohiy asir bo'lib tushsa, uni o'ldirmasinlar, unga ixtiyor bersinlar. Agar navkarlikni qabul qilsa, navkar qilsinlar, yo'q esa uni ozod etsinlar. Bunga misol, men (Qaysar bilan urushda) to'rt ming rumlik askarni ozod qildim"

ARIPOVA ZULFIYAXON



"Qaysi bir sipohiy
tuz haqi va
vafodorlikni
unutib, xizmat
vaqtida o'z
sohibidan yuz
o'girib, mening
oldimga kelgan
bo'lsa, unday
odamni o'zimga
**eng yomon
dushman** deb
bildim".

ARIPOVA ZULFIYAXON

"Dono vazir shuldirki, o'z o'rniga qarab, goh qattiqqo'llik bilan gohida esa muloyimlik bilan ish yuritadi. Bunday vazir ortiqcha qattiqqo'llik ham qilmaydi, ko'p muloyimlik bilan ham yumshab ketmaydi. Agar muloyimlik qilsa, dunyotalab, ta'magir odamlar uni yutib yuboradilar. Agar ortiqcha qattiqqo'llik ishlatsa, undan qochadilar va unga (boshqa) yo'lamaydilar".





ARIPOVA ZULFIYAXON



"Ochiq yuzlilik, rahm-shafqat bilan xalqni o'zimga rom qildim. Adolat bilan ish yuritib, jabr-zulmdan uzoqroqda bo'lishga intildim".

ARIPOVA ZULFIYAXON



Ming afsuskim, 1405-yil 18-fevral sanasida buyuk bobomiz bu dunyodan ko'z yumadilar. Ularni o'z vasiyatlariga ko'ra piru ustozini Shayx Sayyid Baraka qabrlarining Oyoq tomoniga dafn etadilar.

ARIPOVA ZULFIYAXON



2006 yil 9 aprel kuni O‘zbekistonda buyuk davlat arbobi va sarkarda, Yevropada “Tamerlan” degan nom bilan mashhur bo‘lgan Amir Temur tavalludining 670 yilligi keng nishonlandi.

ARIPOVA ZULFIYAXON





**BUYUK BOBOMIZ RUHI
QALBIMIZDA ABADIY YASHAGAY!**

ARIPOVA ZULFIYAXON



**E'TIBORINGIZ UCHUN
TASHAKKUR!**

ARIPOVA ZULFIYAXON